



**LEGAL TECHDA SUN'IY INTELEKTNING AXLOQIY
MUNOSABATLARI (SUN'IY INTELEK TIZIMLARI SUDYALARNING
MAXFIYLIGI, TARAFKASHLIGI VA MUSTAQILLIGIGA QANDAY TA'SIR
KO'RSATADI).**

Muallif: Jonzoqov Shohjahon Aqilboy O'g'li

Ta'lim muassasasi: Toshkent davlat yuridik universiteti, Xususiy huquq fakulteti, 1-bosqich V-potok 3-guruh talabasi.

Email: shohjahonjonzoqov724@icloud.com

Annotatsiya: Biz jahon miqyosida tarqalayotgan va ko'pgina sohalarda o'z o'rnini topib birayotgan sun'iy intellektning huquqiy sohadalarda qo'llanilishini va bu "Legal Tech"da o'z o'rnini topayotganini ko'rishimiz mumkin. SI qolgan sohalarga ham katta ta'sir etgani kabi, u huquq sohasida ham o'z aksini topdi. Legal techda SIning qo'llanilishi ko'plab o'zgarishlarga olib kelishi, ya'ni huquqshunoslar ishini osonlashtirishi, tezlashtirishi, arzonlashtirishi va ishlarning sifatini oshirishi bilan katta o'zgarishlarga sabab bo'ladi deyish xato bo'lmaydi. Ushbu maqolada siz Legal tech va SI nima ekanligi haqida, ularning kelib chiqish tarixi, rivojlanishi hamda ustun jihatlari va kamchiliklarining tahlilini o'qib, o'rganib, ko'rib chiqishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Legal tech, sun'iy intellekt, axborot erkinligi, avtomatlashtirish, prognozlash, qonunchilik bazasi, platformalar, texnologiya, raqamlashtirish.

Kirish. Hozirgi globallashib borayotgan zamonda texnologiyalarning tinimsiz rivojlanishi natijasida insonlar hayotni bu texnologiyalarsiz tasavvur qila olmasligi hech kimga sir emas. Ko'plab sohalarni qamrab olayotgan bu vositalar huquq sohasini ham chetlab o'tmadi, albatta.

Legal tech yoxud legal technology, ya'ni huquqiy sohada axborot texnologiyalardan, sun'iy intellektdan va raqamli texnologiyalardan foydalanish degan ma'noni anglatadi. Zamonaviy texnologiyalar va sun'iy intellekt asosidagi dasturlar nafaqat yuristlarga, balki huquqiy sohada faoliyat yuritadigan barchaga ishlarning bajarilishini osonlashtirishi va yordamlashishi bilan bu sohada sun'iy ongga bo'lgan talabni oshirmoqda.

Sun'iy intellekt bu odam kabi o'ylashni, fikrlashni, tahlil qilishni, qaror qabul qilishni biladigan dastur yoki texnologiya. Qolaversa ular xatolardan o'rganishni, harakatlarni takrorma-takror amalga oshirish natijasida muntazam ravishda yangi bilimlarni o'rganib, ko'nikmalar hosil qilishlari insonlarni hayratga solmoqda. Jumladan 1997-yilda bo'lib o'tgan shaxmat o'yinidan so'ng ko'plab insonlar sun'iy intellektning qobiliyatlaridan xavotirga tusha boshladi. Sun'iy ong birinchi marta

shaxmat o'yinini o'ynagan vaqtda hech qanday ko'nikmaga ega bo'lmagani tufayli mag'lubiyatga uchraydi. Biroq tinimsiz o'yinlardan so'ng u tarixdagi eng buyuk shaxmatchilardan biri, 5 karra jahon chempioni Garri Kasparov bilan 1997-yil 11-may kunidagi o'yinda uni mag'lubiyatga uchratadi. Bu IBM kompaniyasining Deep Blue superkompyuteri edi. Bu voqeadan so'ng insonlar Sining vaqt o'tgani sari yangi ko'nikmalarni hosil qilishini va yangi bilimlarni o'zlashtirishini tushunib yetdi. Hozirda sun'iy intellekt ko'plab sohalarda o'zining qobiliyatlarini namoyon etib, ularning ishini yengillashtirishga xizmat qilmoqda. Darhaqiqat, bu o'zgarish legal tech sohasida ham o'z o'rnini borligi ko'rsatayotgani rost.

Sun'iy intellektning huquq sohasidagi o'rni qanday? Aslida, sun'iy intellekt yaratilganiga 50 yildan oshgan bo'lsada, boshqa sohalar bilan bir qatorda huquq sohasiga ham yaqin yillarda qo'shildi. Sun'iy intellektning huquq sohasiga kirib kelishi ko'plab o'zgarishlarga olib keldi va huquqshunoslar uchun qulayliklar yaratdi. Misol uchun, SI huquqiy sohada hujjatlarning tahlili, shartnomalarni ko'rib chiqish va tekshirish, huquqiy sohada ishlarning yuritilishini avtomatlashtirish natijasida advokatlarining ishini ancha yengillashtirmoqda. Saudiya Arabistoni va Hindiston kabi mamlakatlarda qo'llanilayotgan "Smart legal counsel" dasturini misol tariqasida olsak, u shartnomadagi nomuvofiq yoxud sizning manfaat va huquqlaringizni cheklaydigan xavfli bandlarni aniqlaydi va bu shartnomaning xato kamchiliklarni tahlil qilib, hujjatning tahlil qilishga sarflanadigan vaqtni 60-70%ga qisqartirishi ta'kidlangan.

Shuningdek, "Virginia lawyers weekly" maqolasida ta'kidlanishicha AQSHda faoliyat yuritayotgan huquqshunoslar sun'iy intellekt yordamida oldin ko'rib chiqilgan ishlarni tahlil qilib sud qarorlarni oldindan bashorat qilishayotgani shov-shuvlariga sabab bo'lgan. Bu esa ishda g'alaba qozonish ehtimolini foizlarda ko'rsatib, mijozlarga realistik maslahatlar berish va ishning davomiyligini tezlashtirish imkonini bergan. Bu kabi dasturlar nafaqat chet mamlakatlarda, balki O'zbekistonda ham faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, "LexAI" - sun'iy ong asosida ishlovchi huquqiy yordamchi platforma bo'lib, o'zida bir necha xil funksiyalarni mujassamlashtirgan. U chat-bot asosida ishlaydi va fuqarolar yoki boshqa shaxslarning savollariga qonunchilik bazasidan olgan ma'lumotlariga tayangan holda javob beradi. Ta'kidlab o'tish lozimki bu platforma qonunchilik hujjatlarni tahlil qilish vazifasini ham bajaradi. Ma'lumotlarga qaraganda, dastlab u 34 000 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar ustida tahlil olib borgan. Qolaversa, TuzukAI ham shu kabi platforma bo'lib, bu ham sun'iy intellekt yordamida turli xil shartnoma va hujjatlarni tushunarli va sodda tilda tushuntirib berish vazifasida foydalaniladi. Bu platforma ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz) ekani bilan murojaatchilarga keng qulayliklar yaratmoqda. Hozirda huquqshunoslarning 65%iga ushbu vositalar ularga ma'lumotlarni qidirishda, 56%iga hujjatlar nusxalarini tayyorlashda va 44%iga esa ma'lumotlarni tahlil qilishda yordamchi bo'la olishiga ishonishadi [6 : 12-bet].

Methodlar. Mazkur metodologiya “Legal tech va sun’iy intellekt”ning huquq sohasi va tizimiga ta’sirini, ulaming O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va yuridik amaliyotida qo‘llaniladigan texnologiyalarni tahlil qilish va o‘rganishga qaratiladi. Asosan, ushbu uslublarga tahliliy, tizimli, qiyosiy, hamda tarixiy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi.

Avvalo, tahliliy yondashuvni ko‘rib chiqsak, bu yondashuv normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyot va maqolalar hamda xorijiy tajribalar orqali “Legal tech va sun’iy intellekt” tushunchasining mohiyatini yaxshiroq anglashga yordam beradi. Shu bilan birga bu texnologiyalarning huquq tizimimizga ta’sirini, xalqaro miqyosdagi ta’sir doiralari va tajribalarini tahlil qiladi. Jumladan, AQSH, Hindiston, Xitoy, Yevropa ittifoqi kabi mamlakatlar va ittifoqlarning bu texnologiyalarni yuridik amaliyotda qo‘llashiga doir tajribalarini tahlil qiladi.

Keyingi, ya’ni tizimli yondashuv yordamida butun bir mexanizmni yaxlit bir tizimga solish asosida tahlil qilib, ko‘rib chiqish imkoniyatini yaratadi. Bunda shu kabi texnologiyalarning huquq sohasiga tatbiq etilishi, uning qonunni ishlab chiqishi va tahlil qilishi, davlat organlariga(sud, advokatura, prokuratura va boshqalar) bularning joriy etilishi qanday natija berayotgani o‘rganiladi va tizimli tahlildan o‘tkaziladi.

Qiyosiy yondashuv yoxud taqqoslash usuli orqali O‘zbekistonning huquqiy tizimlariga ushbu texnologiyalarni joriy etish tajribalari bilan xorijiy mamlakatlar(AQSH, Hindiston, Xitoy, Yevropa ittifoqi) tajribasi solishtirilib o‘rganiladi. Bu orqali xalqaro tajribalar ko‘zdan kechirilib, kamchiliklari o‘rganiladi. Shu bilan birga tizimlarni taqqoslab mamlakat uchun qulay va mos bo‘lgan tizim yaratiladi yoki qo‘llaniladi.

Oxirgi tarixiy yondashuvda huquq sohasini raqamlashtirish jarayonining bosqichma-bosqich o‘zgarishi va rivojlanishi o‘rganiladi. Tarixdagi ilk hujjatlarni arxivlash(saqlash)dan tortib, hozirgi qonunchilik milliy bazasi(LexUZ)gacha bo‘lgan taraqqiyot o‘rganilib, tahlil qilinadi. Bundan maqsad o‘tmishda yo‘l qo‘yilgan xatolarni takrorlamaslik va ularni o‘rgangan holda yangiliklar kiritishdan iborat.

Natijalar. Huquqiy texnologiyalar va sun’iy ongning yuridik sohaga kirib kelishi misli bovar qilib bo‘lmaydigan o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi.

Tadqiqot natijalariga asoslangan holda aytish mumkinki, SI hujjatlarni avtomatlashtirish, saqlash, hujjatlar va shartnomalarning tahlilini tezlashtirish, yuridik xizmatlar ko‘rsatish va maslahatlar berish, yuridik hujjatlarni elektron tarzda tayyorlash kabi ishlarning sifati, tezligi hamda samaradorligini oshirmoqda.

Binobarin, O‘zbekistondagi LexUZ, LexAI, TuzukAI, E-sud kabi o‘zi ichiga sun’iy intellektlarni oluvchi va ulardan foydalanishni qo‘llab quvvatlaydigan platformalar insonlarga yaqindan yordam bermoqda. LexUZ - O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi bo‘lib, bu dastur Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 5-avgustdagi 304-son qarori asosida joriy qilingan. 2007-yil 1-maydan esa

rasmiy ravishda ishga tushgan. “Rasmiy manba” maqomiga 2017-yil 25-sentabrda ega bo’lgan. Bu platforma orqali normativ-huquqiy hujjatlarni istalgan paytda oson qidirib topish imkoniyatini beradi.

Kamchiliklarni o’rganish va tahliliy ma’lumotnomalar tayyorlash orqali bu sohada ko’rilgan chora-tadbirlar natijasida talaygina o’zgartirishlar kiritildi. Xususan, xavfsizlik sohasida quyidagilar takomillashtirildi:

1. Ma’lumotlarning maxfiyligi va himoyasini kuchaytirish
2. Shaxsga doir ma’lumotlarga oid bo’lgan ma’lumotlar sir saqlanishining ta’minlanishi va bunga mas’ul xodimlarning diqqatini oshirish;
3. Kibrxavfsizlikni saqlash va xalqaro standartlarga muvofiqlik;
4. Huquqiy jarayonlar samaradorligining oshishi.

Muhokama. Yuqorida “Legal tech va sun’iy intellektning” foydali jihatlarini ko’rib chiqdik. Shunga qaramay ularning ham yetarlicha xato va kamchiliklari mavjud. Huquqiy sohada texnologiyalardan foydalanish orqali biz turli xil hujjatlarni, jumladan, shaxsga doir ma’lumotlarning maxfiyligi va ularning har xil xatarlardan himoya kabi mas’uliyatli vazifalar ham mavjud ekanligini unutmaslik lozim. Advokatlar misolida buni ko’rsak ularga murojaat qilgan fuqarolar o’zlarining ma’lumotlarini ishonib topshirishadi. Ammo ayrim shaxslar tufayli bu ma’lumotlar 2019-yil 1-oktabrdan kuchga kirgan “Shaxsga doir ma’lumotlar to’g’risida”gi qonunning 17-moddasida keltirilgan maqsadlarga erishilgandan so’ng yo’q qilinmasligi oqibatida ularning xavfsizlik darajasi tushib, ma’lumotlarga bevosita aloqasi bo’lmagan shaxslar qo’liga tushish ehtimoli oshadi. Shu sababdan, bunga oid zarur choralar ko’rilganidan so’ng bu muammolarning anchagina qismi yechildi. Ma’lumotlarning xavfsizligiga kelsak, hozirda O’zbekiston aholisi tomonidan keng foydalanilayotgan my.gov.uz sayti xavfsizlik talablariga javob bera oladi deyishimiz mumkin.

Foydalanuvchilarning aniq identifikatsiyasi va biometrik tasdiqlash kabi tizimlaridan MyID va FaceID orqali o’tish va shu kabi shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizlik darajasini oshirib, ularning himoyasini ta’minlashmoqda.

Legal tech sohasidagi amaliyotlar GDPR(General Data Protection Regulation) va shu kabi xalqaro standartlarga muvofiq bo’lishi zarurligi ta’kidlangan. GDPR Yevropa ittifoqi tomonidan qabul qilingan shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo’yicha reglament hisoblanadi. Bu yerda har qanday shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligi va himoyasi ta’minlanadi. Tashkilotlarning shaxsga doir ma’lumotlardan foydalanishdagi bir qator majburiyatlari ham belgilangan bo’lib, bular quyidagilar:

1. Ma’lumotlarni faqat qonuniy asosdagina yig’ish;
2. Ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlash;
3. Ma’lumotlarni kerakli muddatdan ortiq saqlamaslik va shu kabi boshqa talablarni o’z ichiga oladi.



GDPRning xavfsizlik prinsiplari hozirgi kunga kelib, turli xil axborotlarning himoyasi, maxfiylik va shaxsiy ma'lumotlarning xavfsiz saqlanishi bo'yicha global standartga aylangan.

Xalqaro hamjamiyatda qo'llanilayotgan sun'iy intellektlardan yana biri Xitoyning sud ishlarida joriy etilayotgan bo'lib, u ish jarayonlarini tezlashtirish, hujjatlarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish, ularni huquqiy va mantiqiy tahlil qilish, hujjatlarni avtomatlashtirish, saqlash va boshqarish kabi vazifalarni amalga oshiradi.

Ma'lumotlarga qaraganda, 2023-yildan buyon "Beijing Internet Court"dagi fuqarolik ishlarining 80% avtomatik tayyorlanadi. Sudya esa bu hujjatlarni tekshiradi, tasdiqlaydi hamda so'ngi qarorni chiqaradi. Bundan maqsad sud jarayonlarida inson omilining ta'sirini kamaytirish va qonuniylikni ta'minlash hisoblanadi. Chunki ishni ko'rayotgan sudya ayblanuvchiga nisbatan sinfatiya(iliqlik) yoki antipatiya(nafrat) kabi hissiyotlariga berilishini oldini olish va sudning hal qiluv qaroriga bularning ta'sirini kamaytirish undan foydalanishning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Lekin buning ham o'ziga yarasha kamchiliklari mavjud. Jumladan, ular hujjatlarni tahlil qilayotganda yoxud tayyorlayotganda qator xatoliklarga yo'l qo'yishi mumkin. Buning sababi esa SI ishlarini ko'rib chiqayotganda bu ishni sodir etgandagi insonning holatini hisobga olmaslik, ularning bu jinoyatni sodir etishga undagan sabablarni hisobga olmaslik, ya'ni unda insondagi his-tuyg'ular yo'qligi ishning qonuniy, biroq adolatsiz bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Xususan, O'zbekiston respublikasida ham sud ishlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda ham bu munosabatlarni tartibga soluvchi qonun ham joriy etilgan bo'lib, u 2025-yil 21-avgustdagi 140-sonli prezident farmoni bilan "Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qabul qilingan. Bu normativ-huquqiy hujjatda ham sun'iy intellekt texnologiyalarini sud ishlarida joriy qilish, sud ishlarini yuritishda qog'oz shaklidan voz kechish maqsadida "Raqamli sud" konsepsiyasini tashkil etish va uni amlda joriy etish, barcha sud hujjatlarining raqamlashtirilishi va sud ishlarining "E-sud" platformasiga joylashtirish orqali sud ishlari bilan tanishish va shu kabi boshqa o'zgarishlarni amalda joriy etish bo'yicha choratadbirlarini amalga oshirish ishlari ko'rilmogda.

Xulosa. Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, bu texnologiyalar huquqiy xizmatlarning sifatini, tezligi va aniqligini oshirishga anchagina shart-sharoit va imkoniyatlar yaratmogda. Sun'iy intellekt yordamida sud qarorlarini prognozlash, huquqiy hujjatlarni tahlil qilishda yaqindan amaliy yordam ko'rsatmogda. Sun'iy intellektni sud jarayonlariga joriy qilish orqali bu ishlar bajarilishining muddatlarini qisqartirish, bu jarayonda sodir bo'ladigan inson xatolarini minimallashtirish va qarorlarning izchilligini ta'minlashga xizmat qilmogda. Shuningdek, huquqiy

texnologiya platformalari fuqarolarga onlayn maslahat berish, arizalarni elektron topshirish va masofadan turib ishlarni hal qilish yoki nazorat qilish kabi ishlarni bajarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sun'iy intellektning foydali sifatlarini legal tech sohasiga joriy etish orqali sun'iy intellektdan foydalanishni keng joriy etish, shuningdek huquqshunoslarga ham huquqiy ishlarni hal qilishda sarflanadigan vaqt, mablag'ni kamaytirishga yordam berish kabi vazifalarni bajarishi taqsiinga sazovor. Legal tech va sun'iy intellektning amalda to'g'ri joriy etilishi huquqiy tizimning samaradorligini oshishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Manba: IBM Archives. "Deep Blue defeats Garry Kasparov in chess match, May 11, 1997".

Havola: <https://www.ibm.com/history/deep-blue/?mhsrc=ibmsearch>

2. Manba: Beveron Technologies. The Benefits and Risks of Using AI in Legal Tech Solutions. 30 avgust 2025.

Havola: <https://www.beveron.com/corporate-legal-case-management-software/>

3. Manba: Jon Stojan, The Future of Legal Tech: AI's Role in Transforming Law Practices, Virginia Lawyers Weekly, 28 aprel 2025.

Havola: <https://valawyersweekly.com/2025/04/28/the-future-of-legal-tech-ais-role-intransforming-law-practices/>

4. Manba: "LexAI platform to launch in Uzbekistan" maqolasi — "The Ministry of Justice has introduced the LexAI platform, featuring an AI-powered chatbot".

Havola: <https://www.uzdaily.uz/en/lexai-platform-to-launch-in-uzbekistan/>

5. Manba: Terms & Conditions sahifasi — "Tuzuk is an AI-powered platform ... providing access to the legislative database of the Republic of Uzbekistan".

Havola: <https://www.tuzuk.ai/en/terms-and-conditionstuzuk.ai>

6. Manba: Department of Judicial Administration Management , Henan Judicial Police Vocational College , ZhengZhou, 450000, China 邮箱 : Article - AI in Legal Tech: Automating Document Review and Legal Research, 2-3 p.

Havola:

https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=5195526&utm_source=chatgpt.com

7. Manba: Lex.uz — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

Havola: <https://lex.uz/docs/343216>

8. Manba: Lex.uz — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

Havola: <https://lex.uz/docs/3280381>



9. Manba: LexUZ qonunchilik milliy bazasi O‘RQ-547-son, 2019-yil 1-oktabr.
Havola: <https://lex.uz/uz/docs/-4396419>
10. Manba: «Information on digital hygiene for adults» sahifa: “If fraudsters gain access to My.gov.uz account” — kirish uchun himoya choralari.
Havola: <https://my.gov.uz/en/life-situations/563>
11. China Daily — “Judiciary embraces AI for efficiency” (2025)
Havola:
<https://www.chinadaily.com.cn/a/202501/02/WS6775fde7a310f1265a1d8948.html>
12. Manba: O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi,
Havola: <https://lex.uz/uz/docs/-7696567>